

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA MILLIY TADQIQOTLAR:

DAVRIY ANJUMAN

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

ALBERT EYNSHTEYN
(1879-1955)

2022
YANVAR
№36



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.taqqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
13-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-13**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-13**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 36-қўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 январь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 9 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

**АРХИТЕКТУРА ВА ДИЗАЙН ЙЎНАЛИШИ
РИВОЖЛАНТИРИШ**

1. Ibraeva Madina Bahromjon qizi	
ILK O'RTA ASR O'RTA OSIYO SHAXARSOZLIGI VA ME'MORCHILIGI.....	7



АРХИТЕКТУРА ВА ДИЗАЙН ЙЎНАЛИШИ РИВОЖЛАНТИРИШ

ILK O'RTA ASR O'RTA OSIYO SHAXARSOZLIGI VA ME'MORCHILIGI

Ibraeva Madina Bahromjon qizi

Komoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va
dizayn instituti 2-kurs magistranti
Телефон: +998935682662

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi ilk o'rta asrlarda vujudga kelgan O'rta Osiyo shaharsozligi va me'morchiligi va undan topilgan bino qoldiqlari va unda ishlatilgan hom ashyolar haqida qisqacha ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: VII-VIII asr shaharlar, Eftalitlar hukmronligi, ark, shahriston, Afrosiyob, saroy kompleksi, Rabod, paxsa devor, Samarqand, Buxoro.

Arab sayyohlari, tarixnavislari va geografiyashunoslarining ma'lumotiga qaraganda ilk o'rta asr davridagi O'rta Osiyo shaharlarining aksariyati uch qismdan iborat bo'lgan. Bu uch qismining biri shahar arki (ko'handiz) - hukmdor qarorgohi bo'lsa, ikkinchisi shahriston bo'lib, shaharning asosiy hismi savdohunarmandchilik rastalari, boshqa jamoat hamda turarjoy binolarini o'z ichiga olgan. Uchinchi qism rabot deb atalgan va u shahardan tashqaridagi savdo-hunarmandchilik hududini tashkil etgan. Lekin VII-VIII asr shaharlarini o'rganish natijalari ularning ko'pchiligi faqatgina ikki qismdan — ark (yoki qal'a) va shahristondan tashkil topganligini ko'rsatadi.

VI asrda Eftalitlar hukmronligi o'rnida vujudga kelgan turk xoqonligi davrida mahalliy hokimlarning qaramligi ancha sustlashdi. Xorazmda, xususan uning poytaxti Ko'hna Urganchda — Afrigiylar, Buxoroda — buxorxudatlar, Samarqanda — ixshidlar hukm surishgan. Shaharlar atrofida alohida feodal qasrlar — ko'shklar mavjud bo'lgan. Ular baland platforma ustiga kvadrat sahnli (60x60 m.) aniq geometrik tarzga ega bo'lgan ikki qavatli ko'rinishida bo'lgan.

Samarqand shahri qal'a va shahristonining sahni 65 gektar, rabodi bilan esa 200 ga maydonni egallagan. Rabod qalin paxsa devor bilan uralgan va uning uzunligi 6 km. dan ziyod bo'lgan. Buxoro shahrining shahristoni 30-35 ga, qolgan o'rtacha va yirik shaharlar esa taxminan 15 ga bo'lgan. Shaharlar asosan daryo va kanallar bo'yida joylashib ularning suv bilan ta'minlangan. Ularning kelajakdagi rivojlanishi ushbu suv xavzalari tomonga yo'nalgan. Ta'kidlash joizki, O'zbekistonning ko'plab katta va kichik qadimiy shaharlari, va shu jumladan aytib o'tilgan Samarqand, Buxoro va boshqalarning rivoji qadimgi qatlamlarning ustida bo'lganligi uchun, V-VIII asrlar qatlamlari keyingilarining tagida qolib ketgan.

Afrosiyobning umumiy hududi 230 gektarni tashkil etadi va uning aytarliq butun hududida V-VI asrlar qatlamlari uchraydi. Shulardan yaxshi o'rganilganlari sifatida dastlab “saroy kompleksi” va endilikda “nufuzli oilalar mahallasi” deb atalgan shaharchaning markaziy qismida joylashgan binolar majmuasini ko'rsatib o'tish mumkin. Bu kvartalning ba'zi joylari XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi arxeologik qazishmalar vaqtida ochilgan va, 1960-yillarida Afrosiyobda arxeologik qazishmalar mutahassislar tomonidan keng ko'lamda avj oldirildi. Natijada bir necha xonalar xarobalari ochiladi, ulardan ba'zilarining devorlarida rangli bo'yoqlar - tempera (tuxum sarig'iga rangdor mineral upa aralashtirib tayyorlanadi) bilan ishlangan devoriy rasmlar topildi. 1965–1968 yillarda Afrosiyobning ikkinchi va uchinchi halqasi mudofaa devorlari oraliqida bir necha xonalardan iborat kompleks kavlal olingan. Devoriy surat panno shu kompleksning markazida joylashgan bir necha xonadan iborat imoratning mehmonxonasidan topilgan. Rasm syujetiga va bu devoriy suratlardagi bir odam tasvirining kamzuli etagiga tushirilgan sug'diy yozuvga qarab binolar Samarqand shohi (ishxidi) Varxumanga daxldor imoratlar bo'lsa kerak deb taxmin qilinadi. Devoriy rasmlar shuningdek Panjakent, Bolalik tepa, Varaxsha, Yer qo'rgon va V-VIII asrlarga oid boshqa ko'pgina shahar xarobalaridan ham topilgan. Movaraunnahrga



xos shaharsozlik va me'morchilikning rivojini qo'shni Tojikistondagi Panjikent shahri misolida ko'rishimiz mumkin. Ilk o'rta asrlarga oid mukammal o'rganilgan shaharlardan biri Qadimiy Panjakent hisoblanadi. Odatdagiday shahar hududining asosiy qismini Shahriston tashkil etadi, uning g'arbida alohida tepaliklarda mustahkam mudofaa tizimiga ega bo'lgan shahar arki joylashgan. Turar joy binolarini o'rtada qurilgan katta kvadrat tarzidagi xona va atrofi qator uzunchoq va to'rt burchak xonalar bilan o'rab olingan komplekslar tashkil etadi. Ularning ba'zilar ensizroq va eshik joylari yarim aylanasi bilan toqlar bilan yopilgan bo'lsa, ba'zi chog'roq kvadrat xonalar gumbaz bilan berkitilgan. Katta xonalar markazi kichkina to'rt burchak tarzida ochiq qoldirilgan. Bu esa o'z navbatida XIX-XX asrdagi Xiva hovlilarining ko'rinishini eslatadi. V-VIII asrda ham shu katta xonalar mehmonxona va hovli rolini bajarganligi ehtimoldan uzoq emas. Bundan tashqari V-VIII asrlarga oid qator qishloq inshootlari ma'lum. Qizig'i shundaki, bularning asosiy qismi xom g'isht, paxsa, yog'och va ba'zilar tog' toshidan qurilgan. Pishiq g'isht (garchi miloddan oldin ma'lum bo'lgan bo'lsa-da) devorlarni tiklashda ishlatilmagan. Avvalgi an'analarning davomi tarzida paxsa, guvala xam ishlatilgan. Tom yopishda – katta xonalarda 4 yog'och ustunli «chor-xari» sistemasi, hamda gisht ustunlarga tayangan ko'p gumbazli tom konstruksiyalari qo'llanilgan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ilk o'rta asrdagi binolar juda ham hashamatli tarzda bezatilgan. Bunga jumladan Afrosiyob Panjakent, Varaxsha, Bolalik tepa, Yerqo'rg'on va boshqa shaharchalardan topilgan devoriy rasmlar guvohlik bersa, ikkinchi tomondan maxsus loydan ishlangan naqshlar va ko'plab topilgan yog'och o'ymakorligi namunalari misol bo'la oladi. Masalan Afrosiyob saroyidagi qabul zalida aniklangan yirik devoriy suratda (hozir muzey ekspozitsiyasida) Marakanda xukmdori tomonidan turli chet davlatlar elchilarini kabul qilish marosimi tasvirlangan. Syujet chiroyli moviy fonda aks ettirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Нильсен В. А. Архитектура Средней Азии (V — VIII вв). Ташкент: Фан, 1966, с. 11.
2. Шишкин В.А.Варакша. М.:Наука, 1963, -50 с.
3. Альбаум Л.И. Живопись Афрасиаба. Ташкент: Фан, 1975, -96 с.
4. Бартольд В. В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Собр.соч.: в 9 тт. М., 1963,т.I,с. 45-597.
5. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. История искусств Узбекистана, Изд. «Искусство» - М.: 1965

ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 13-ҚИСМ

(13-қисм)

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович

Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович

Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.01.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000
